

DARS O'TISH METODLARINI TANLASH MEZONLARI

Po'latov Sarvar Mustafoyevich,

Ro'ziyeva Nazira Ochilovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,

chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, albatta, uni qanday metod asosida o'tkazish haqida bosh qotiradi. Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo'llab o'tkazaversa bo'ladi, lekin amalda buning iloji yo'q. Bunga qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar, mavjud sharoit salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiya, pedagogika bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlarda dars o'tish metodini tanlashga ta'sir qiluvchi juda ko'p omillar ko'rsatiladi.

«Методика преподавания экономических дисциплин» kitobi mualliflarining fikricha ta'lim metodini tanlash yoki aniqlashning oltita umumiy shart-sharoitlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Bular:

1. O'qitishning qonuniyatlari va tamoyillari;
2. Fanning mazmuni va o'rganish metodi, jumladan, uning predmeti va mavzulari;
3. O'qitishning maqsadi va vazifalari;
4. Talabalarning o'quv imkoniyatlari (yoshi, tayyorgarlik darajasi, guruhning xususiyatlari);
5. Tashqi sharoitlar (geografik, ishlab chiqarish, atrof-muhit);
6. O'qituvchilarning imkoniyatlari.

Turli-tuman omillarning dars o'tish metodini tanlashdagi o'rinlarini oddiy tarzda joylashtiradigan bo'lsak, ko'pchilik psixologlar va pedagog olimlarning fikricha, birinchi o'rinda ta'limning maqsadi turadi. Aynan dars o'tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz zarur bo'lgan natija belgilanadi. Ikkinchi o'rinda ta'limning motivasiya darajasi turadi.

Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi
www.tadqiqotlar.uz

asosida individual va guruh ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u. Insonni o'qishga o'rganishga ham ana shu tuyg'u undaydi. O'qituvchi dars o'tish metodini tanlar ekan, albatta, talabalardagi motivatsiya darajasiga e'tibor berish kerak.

Dars o'tish metodini tanlaganda ta'lim qonuniyatlari va prinsiplarini realizatsiya qilishni nazardan qochirmaslik kerak (qonuniyat ob'ektiv amal qiluvchi hodisalarning muhim aloqadorligi, bog'lanishlari va ularning qonunlari, qonuniy asosda tabiiy ravishda o'z-o'zidan kelib chiquvchi muqarrar ish, hodisa va boshqa shu kabilar).

Har bir fanni o'rganishda dars o'tish metodlari ta'lim qonuniyatlaridan, didaktik prinsiplardan kelib chiqqan holda tanlanadi.

XV-XVI asrlarda mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o'qitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.

Ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar quyidagilarda ifodalanadi:

- ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotini aks ettiradi;
- ta'lim va tarbiya jarayoni hamda talabalar tafakkurini rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'langan;
- o'qitish va o'rganish jarayonlari yaxlit ta'lim jarayoni, muayyan ta'lim mazmuni bilan bir-birini taqozo etadi va ikki tomonlama qonuniy aloqani tashkil etadi;
- talabani biron-bir faoliyatga o'rgatish uni shu faoliyatga maqsadga muvofiq jalb etish orqali amalga oshiriladi;
- o'qitish maqsadi va o'quv yurti ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlik;
- o'quv jarayoni o'quvchi talaba maqsadining o'qituvchi maqsadiga muvofiq bo'lishi tufayli amalga oshadi. Bunda o'qituvchi faoliyati o'zlashtirishi lozim bo'lgan mazmuniga mos bo'lishi shart;
- ta'lim mazmunini o'zlashtirish sur'ati va puxtaligi, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv faoliyatiga, talabalarni bilishga bo'lgan

qiziqishini ta'minlash;

•ularning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv jarayoniga qay darajada jalb qilinishi;

•o'zlashtirilgan o'quv materialini mazmunining puxtaligini ta'minlashda mavzuni to'liq yoki qisman takrorlash.

O'quv jarayonida talabalar bilim qonuniyatlaridan qanday foydalanishlari didaktik prinsiplarga amal qilish bilan bog'liqdir.

Albatta, dars o'tish metodlarini tanlayotganimizda fanni o'rganishga qo'yilgan talablar va fanning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bir fanni o'zlashtirishda yaxshi natija bergan metod boshqa fanga talabalarni chuqur o'zlashtirishlari uchun yaxshi yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun ham dars o'tish metodlarini tanlaganda, albatta, fanning xususiyatlariga alohida diqqat qaratish lozim.

Fanni o'rganishda o'quv materialining murakkabligi va miqdori ham muhim rol o'ynaydi. Demak, dars o'tish metodini tanlashda fanning bu jihatlarini ham hisobga olish lozim. Masalan, oliy o'quv yurtlarida pedagogika fanini o'rganishda abstrakt tafakkur nihoyatda katta rol o'ynaydi.

Dars o'tishda qanday metodni tanlash o'rganilayotgan fanga, uning xususiyatlariga, o'rganiladigan mavzularga bog'liq. Dars jaryonini qanday metod asosida tashkil etishda talabalarning o'rtacha bilim darajasi ham muhim rol o'ynaydi.

Guruhda talabalarning bilim darajasi yuqori bo'lsa, muvofiq ravishda ijodiy izlanishga undaydigan metodlarni qo'llash zarur. Bu ularni yanada ko'proq o'qishga, izlanishga olib keladi. Bilim darajasi past bo'lsa, ularga fanning mazmunini o'zlashtirishga yordam beruvchi metodlarni tanlagan ma'qul.

Dars o'tish qiyin bo'lgan guruh talabalarning bilim darajasi bir-biridan keskin farq qiladigan guruhdir. Shuning uchun bunday guruhlarda bilimdonlar boshqalarga yordam berishiga erishishga, fanni o'zlashtirishga ko'maklashadigan metodlarni ko'proq tanlashga to'g'ri keladi.

O'qituvchi dars metodini tanlar ekan talabalarning faolligi, qiziqishini ham

hisobga olishi zarur. Talabalarning qiziqishi past guruhlarda ularning faolligini oshiruvchi, fanni o'rganishga qiziqish o'yg'otuvchi metodlarni qo'llash zarur. Bunda modellashtiruvchi uyin turli qiziqarli mashqlar, konkurslar o'tkazish, talabalarga individual topshiriqlar berish, aytaylik, biron iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarishidan qanday xulosa chiqishi borasidagi fikrlashlar bilan kechadi.

Talabalarning faolligi yuqori guruhlarda ularni o'z ustida mustaqil ishlashlarini ta'minlovchi, erishgan darajada qotib qolmay, yanada ko'proq bilishga undovchi metodlarni qo'llash muhim.

Dars o'tish metodini tanlashda ta'lim berish muddatini ham hisobga olish zarur. Ma'lumki, vaqt inson uchun eng cheklangan resurs. Shuning uchun talabalarni doimo vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish zarur. Fanni o'rganishga umumiy qancha vaqt berilgani, shulardan mavzularga qancha vaqt ajratilganiga qarab, dars o'tish zarur.

Shubhasiz, dars o'tish metodlarini tanlashda moddiy texnik baza, o'qitishning tashkiliy shart-sharoitlari ham muhim o'rin tutadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, maqsadga erishish uchun o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy savollarga ko'proq vaqt ajratishi, shunga muvofiq dars o'tish metodini tanlash va uni o'tkazishni rejalashtirishi zarur.

Dars o'tish metodini tanlashga ta'sir etadigan yana bir omil darsning shakli va tarkibidir. Albatta, nazariy darsda tanlangan metodni amaliy, darsda ham qo'llash kutilgan natijani bermaydi. O'qitish metodini tanlashda guruhdagi talabalar soni ham katta rol o'ynaydi. Kichik guruhlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan metodlar katta guruhlarda kutilgan natijani bermasligi mumkin, yoki umuman qo'llash qiyin bo'ladi.

Dars jarayonida qo'llaniladigan metodni tanlashda o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida o'quv jarayonida shakllanadigan munosabatlarda o'zaro hamkorlikka diqqat qaratilsa, boshqalarida avtoritarlik ustun. Dars o'tish metodini tanlashda eng muhim omil bu o'qituvchining darsga tayyorgarligi darajasidir. Chunki qaysi metodni qo'llash, qanday qilib dars o'tish, darsning mazmuni talabalar ongiga yetkazish o'qituvchiga, uning bilimi, salohiyati, kasbiy ko'nikmasi, mahoratiga

bog'liq.

Yuzaki qaraganda dars o'tish metodini tanlash murakkab emas. Ularni qanday qo'llash uchun o'qituvchida tajriba bor. Ulardan birortasini tanlasa bo'ldi, deya fikr yuritamiz. Lekin ko'rib o'tganimizdek, dars jarayonini tashkil etishga ko'plab omillar ta'sir qiladi.

Bundan tashqari real jarayonga kutilmagan holatlar, sabablar ta'sir qilishi mumkinki, uni avvaldan ko'rib, hisobga olib bo'lmaydi. Dars o'tishda samarali metodlarni qo'llash deganda, mavjud turli-tuman metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo'yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlarni qo'llash tushuniladi. Ular har bir fan, mavzu, savol, guruh uchun turli-tuman bo'lishi mumkin.

Dars o'tish metodlarini tanlashda yangi mavzuni, materialni o'rganilishi, uni mustahkamlash, mavzuni umumlashtirish va dars jarayoni bosqichlari ham katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent, 2017-y, 16-fevral
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" PF-5847-son sonli [Farmoni](#). 8 oktyabr, 2019 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2909 qarori.- Toshkent, 2017 y, 20-aprel.
4. Oliy ta'lim. Me'yoriy – huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. Toshkent, "Istiqlol", 2013.
5. B.To'xliyev, Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyati. T.: O'qituvchi. 2008.
6. S. Mavlonov, J.To'rayeva Pedagogika. – T.: O'qituvchi 2001.
7. S.Po'latov, Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent, Zuxra Baraka biznes

8. B.Ziyamammedov Pedagogika –T.: O‘qituvchi 2000.
9. Z.D.Niyazov Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Samarqand. 2014.
10. G.M.Xusanova Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Samarqand. 2019.
11. J.Xusanboyev, X.Sariboyev Pedagogika. Fan 2006.
12. N.Xujayev, D.Tojiboyeva Maxsus fanlarni o‘qitush uslubiyati. T.: Fan. 2009.
13. N.Xujayev, D.Tojiboyeva Maxsus fanlarni o‘qitush uslubiyati. T.: Fan. 2012.
14. D.Tojiboyeva Maxsus fanlarni o‘qitush uslubiyati. T.: Fan va texnologiya. 2007.